

*Jizzax davlat pedagogika universiteti  
2 kurs talabasi Suyunova Marjona*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lif tizimini rivojlanish talablariga muvofiq pedagogik kadrlarning yuksak professional tayyorgarligi va g'oyaviy - siyosiy yetukligi, umumiyl madaniyatini darajasining doimiy o'sib borish masalalari o'rta ga qo'yilishi, o'quvchilarini go'-yaviy - siyosiy jihatdan tarbiyalashda mamlakatimizdagi xalqlar hayotidagi muhim voqealar, bayramlar hamda unitilmas sanalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanligi, nutqni tinglab tushunishga o'rgatish va nutq mashqlarini taxlil qilish haqida yoritilgan.

**Аннотация:** В данной статье в соответствии с требованиями развития системы образования рассматриваются вопросы высокой профессиональной подготовки и идеально-политической зрелости педагогических кадров, непрерывного роста уровня общей культуры, идеально-политического воспитания. студентов освещены важные события в жизни народов, праздники и памятные даты в нашей стране, обучение аудированию и анализу речевых упражнений.

**Abstract:** In this article, in accordance with the requirements of the development of the educational system, the issues of the high professional training and ideological-political maturity of pedagogical staff, the continuous growth of the level of general culture, and the ideological-political upbringing of students are highlighted. the important events in the life of the peoples, holidays and memorable dates in our country, teaching listening comprehension and analysis of speech exercises are highlighted.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiya, ta'lif jarayoni, og'zaki va yozma nutq, dialogik nutq, tinglab tushinish.

**Ключевые слова:** педагогическая технология, учебный процесс, устная и письменная речь, диалогическая речь, понимание на слух, непосредственная помощь, самостоятельное обучение.

**Key words:** pedagogical technology, educational process, oral and written speech, dialogical speech, listening comprehension, direct assistance, independent education.

### **KIRISH.**

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning markazida ta'lif jarayonining ham subyekti, ham obyekti bo'lgan o'qituvchi va o'quvchi turadi. O'quvchilarning bir-birlari bilan o'zaro aloqalari, muloqotlari interaktiv metodlarni qo'llaganda, tabiiy, erkin bo'lishini tajriba ko'rsatmoqda. Hozrigi kunda dars jarayoniga samarali erishish uchun

bunda axborot manbalari, jihozlari, audiovizual vositalar kompyuterga kiritilgan o'yinlar, o'qitishning zamonaviy kompyuter tizimlari, multimedia, audio va video kassetalar, disk, fleshkalardan va boshqa yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarni bilimini mustahkamlashda va oshirishda muhim o'rinni egallaydi. O'quvchilarning har bir fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida axborot texnologiyalari bilan bir qatorda pedagogik texnologiyalarning interfaol usullaridan aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, hamkorlikda o'qish va tarjima qilish, bahs-munozara, davra suhbat, klaster va boshqa ko'pgina usullardan foydalanilgan holda og'zaki va yozma nutqqa o'rgatiladi.

Ona tilidagi nutqni eshitish, tushunish, so'zlashuv deb ataladigan nutq faoliyati turini o'zida aks ettiradi. Shu bilan ular eshitib o'qishda ham ma'lum tajriba orttiradilar. Ular darsda o'qituvchining nutqini, javoblarini eshitadilar. Ba'zan hikoya o'qishda yoki diktant o'qiyotganda o'qituvchi ularga ovoz chiqarib o'qib beradi, ba'zan esa gapirib beradi. Eshitish odatda o'quvchilarni yangi til materiallaridan tanishtirish uchun yoki qayta esga olish uchun tegishli nutq mazmunini bayon etish uchun xizmat qiladi. Eshitib tushunishga o'rgatish bilan bog'liq bo'lgan mustaqil maqsad qo'yilmaydi. Eshitib idrok etishni maxsus mashq qilishni talab etadigan materiallar tanlanmaydi.

Mavzular bilan birga qo'shib olib borib, yuqori bosqichlarga og'zaki nutqqa o'rgatishni qanday tuzish kerakligiga umumiy o'ra ta'lim uchun mo'lljallangan darsliklardan misol bo'la oladi. Har bir mavzuda og'zaki nutq ustida ishslash, ma'lum mavzu atrofida olib boriladi. Masalan, "Teatr" mavzusi olinadi va darsning boshida quyidagi topshiriqlar taklif qilinadi.:

- 1) Siz teatrga qachon, kim bilan borganingiz, qanday ertak ko'rganingiz haqida so'zlab bering:
- 2) Ko'rgan ertagingiz, bosh rolda kim o'ynaganligi, o'zingiz yaxshi ko'rgan bir yoki bir necha qahramonlar haqida so'zlab bering:
- 3) Shunday vaziyatni tasavvur qiling: do'stingizga ertak haqida so'zlab beryapsiz. Do'stingiz bosh rolni kim o'ynaganligini bilishni istaydi. Siz unga shu ertakni ko'rishni va bu haqda o'z fikrini aytib berishni maslahat bering.

Dialogik nutqni yanada o'stirish uchun intervyudan foydalanish mumkin: o'quvchi biror shaxsni ifodalab, boshqa o'quvchilarning savollariga javob qaytaradi.

Tinglab tushunish ustida ishslash yuqorida ko'rganingizdek, nutq boshqa turlarning o'sishi bilan yanada bog'liqdir. Tinglab tushinish o'qish bilan moslangan bo'lishi mumkin. Boshlanishida o'qituvchi ilmiy - ommabop matnni o'qitayotgan bo'lalar, kashfiyot davri haqida so'zlab beradi.

Tinglab tushunish yuqori sinflarida ko'proq rivojlanishi mumkin. Ayni bir vaqtida turli xil qiziq material ma'lum qilish imkonini beradi. Bundabadiiy asarlardan, hikoyadan, ertakdan olingan qahramonlar, ajoyib kishilar, yozuvchilar epizodlar, manba xizmatini o'tashi mumkin.

Ba'zida badiiy asarlardan kichik parchalar tinglash, keyin esa ishlarni xotirlab, so'zlab berish foydalidir. O'quvchilar tekstni xotirlab qolib, so'zlab bera olishlari uchun o'qituvchi yordamchi savollar beradi.

Matnni necha marta tinglash kerak degan savol paydo bo'ladi. Bu, chamasi tinglashning maqsadiga bog'liq bo'lsa kerak. Agar tushunilganlikni ona tilida savollar berish yoki xulosa yasash orqali tekshirib ko'rildigan bo'lsa, unda bir marta tinglash yetarli bo'ladi. Agar tekstdan so'zlab berish va mavzu yuzasidan suhbatni davom ettirishda foydalanilsa, unda ikki marta tinglashning o'zi talab qilinadi.

Og'zaki nutqni o'rgatishda nutq mashqlari ham asosiy omil hisoblanadi. Ularga quyidagicha izoh berib, ilova qilish mumkin:

1. Badiiy asar, sahna asari, suhbat, axborot, radioxabar va shu kabilarni tinglash.
2. Televizorda ko'rilgan mutfilmlar asosida kichik hikoya yozish.

Hayotiy tajribalarga tayangan holda shuni aytish kerakki, hozirgi darsliklarimiz davr talabi darajasida judayam mukammal qilib ishlangan gholda ishlandi, darsliklarni yanada yangi darsliklar chiqarish ustida ish olib borilmoqda. Hozirgi ishlab chiqilgan darsliklarda har bir hikoya yoki mavzular yoki misollar judayam tushunarli holda qilib ishlangan va audio qilib ishlangan o'quvchilar har bir mavzuni juda yaxshi tushunib olishmoqda.

Dars jarayonida interfaol metodlar va didaktik o'yinlar o'quvchilarning chet tilidagi nutqni eshitish, undan xulosa chiqarish qobiliyatlarini tarbiyalaydi, o'quvchilarning nutq madaniyatini oshiradi. Yoshga doir matnlar tanlash, tanlangan matnlar ustida savol-javob uyuştirish, dialoglar tuzish, mazmunli o'yinlar, ayniqsa kundalik maishiy xizmat mavzuidagi rolli o'yinlar ko'p o'ynatiladi. Har bir darsni qiziqarli qilib o'tish uchun o'quvchi o'z ustida ko'proq ishlash talab qilinmoqda va interfaol metodlar orqali o'quvchilarga dars berish ularning xotirasini rivojlantirish va ongi va tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi va samarali natijaga erishadi. O'qish darslarida o'qilgan matnning ongli o'zlashtirilishiga bog'liq. O'quvchi matnda fikr nima haqida borayotganini aniqlasagina o'zida shunday xislatlarni shakllantirishga harakat qiladi.

Ikkinchidan esa yaxshi inson bo'lishi uchun o'qishning zarurligini anglaydi. Ongli o'qishni ta'minlashda matn bilan unga ishlangan rasmlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashtirishga, matn yuzasidan savollar berishga diqqat qaratishi lozim. She'r, tez aytish, topishmoq, qo'shiq, maqol, hikmatli so'zlardan o'qitish, yod oldirish ham o'quvchilarning o'qishga qiziqishini oshiradi, o'qish malakasini shakllantiradi, hotirasini mustahkamlaydi. O'qish darslarining uchdan ikki qismi o'qishni mashq qilishga ajratilishi lozim. Demak; o'quvchilarni o'qishga o'rgatish, ularning o'qish suratini oshirish, ifodali va ongli o'qish elementlarini shakllantirish,

tarbiyalash o'qish darslarining muhim vazifalari xisoblanadi. Bolalalar o'qish orqali ham tinglab tushunish qobiliyatiga ega hisoblanadi. Ularga qancha kitoblarni ko'p o'qisa, tinglab eshitish xotirasi rivojlanadi. O'quvchilarning og'zaki nutqi yaxshi rivojlangan bo'lsa, hamma tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz etsa, albatta, yozma nutqi ham ravon va tushunarli bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirish yuzasidan olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning ko'pchiligi o'z fikrini ifodalashga qiynaladi, uni mantiqan izchil bayon qila olmaydi, bog'lanishli jumlalarni noto'g'ri yoki noo'rin tuzadi. Zero, ular hali gap qurilishini, mustaqil gaplarning o'zaro bir-birlari bilan bog'lanish shartlaridan xabardor emas. Shuning uchun o'qish darslarida amalga oshirilayotgan o'quvchilarda nutq o'stirish borasidagi harakatlarning ona tili darslarida matn ustida ishlashga oid mashqlar bilan uzviy bog'lab olib borilishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi, fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchini tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi. Nutqni tinglab tushunish orqali ko'pgina natijalarga erishsa bo'ladi va buning uchun samarali harakat qilmoq darkor.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Gurvich P.B."Obuzene nepodgotovlennoy rechi. Inostranne yazki v shkole"1964 №1
2. Shukurov Yoqubjon "Dil ko'zgusi" O'zbekiston,1990, 61 bet.
3. G'oziev E." O'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish" O'qituvchi 1988, 104 bet.
4. Aloev Y. va boshqalar "ingliz tili darsligi" o'rta maktabning 7-sinf uchun 13-nashri,o'qituvchi 1989, 200 bet.
5. Jamol Jalolov." Chet tili o'qitish metodikasi". Toshkent, 1996- yil
6. Ishmuhamedov R., Abdukadirov A., Pardayev A. "Ta'llimda innovatsion texnologiyalar". Toshkent, 2008.
7. [www.kokanduni.uz](http://www.kokanduni.uz)